

**ONKOLOGIK KASALLIKLARNI ERTA ANIQLASHDA LABORATOR
DIAGNOSTIKANING AHAMIYATI**

Xomidov Abdulquddus

CAMU kafedrası assistenti, MTD klinika, UTT shifokori

E-mail: homidovabdulquddus@gmail.com

Zamonaviy tibbiyotda onkologik kasalliklarni erta aniqlash va ularga qarshi kurashish strategiyalarining samaradorligi, birinchi navbatda, diagnostika vositalarining aniqligi va sezuvchanligiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, laborator diagnostika — ayniqsa, biomarkerlar asosidagi testlar — saraton kasalliklarini klinik belgilari namoyon bo'lmasdan avval aniqlashda muhim o'rin egallaydi.

Bugungi kunda klinik-amaliyotda onkomarkerlar (masalan, PSA, CA-125, AFP, CEA va boshqalar) yordamida o'pka, jigar, sut bezi, prostata, tuxumdon va boshqa ko'plab organlardagi o'sma jarayonlarini aniqlash imkoniyati mavjud. Ularning aniqligi, o'zgaruvchanligi va kombinatsiyalab qo'llanishi saratonni erta bosqichda diagnostika qilish imkonini oshiradi.

MTD klinikasida olib borilgan kuzatuvlarda, tashxisdan oldin laborator tekshiruvlar orqali CA-125 ko'rsatkichi asosida tuxumdon saratonining I-II bosqichida aniqlangan holatlar umumiy kasallik tashxislarining 27 foizini tashkil qildi. Bu esa o'z navbatida, bemorlarning hayot sifatini oshirish va kasallikning invaziv davriga o'tmasligining oldini olishda sezilarli natija berdi.

Shuningdek, laborator diagnostika nafaqat kasallikni aniqlashda, balki kasallikning dinamikasini kuzatish, remissiya yoki retsidiylarni baholash, shuningdek, qo'llanilgan davolash usullarining samaradorligini monitoring qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, onkologik kasalliklarni erta aniqlashda laborator diagnostika katta imkoniyatlarga ega, biroq uning samaradorligi tanlangan usulga va kasallik turiga bog'liq. Onkomarkerlarni tekshirish usuli o'ziga xos



afzalliklarga ega bo'lsa-da, ularning spetsifikliги har doim ham yuqori bo'lmasligi mumkin. Masalan, PSA darajasi prostata bezi adenomasi kabi yallig'lanish kasalliklarida ham oshishi mumkin, bu esa yolg'on ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, onkomarkerlarni boshqa usullar, masalan, genetik tahlillar va instrumental diagnostika (UZI, KT, MRT) bilan birgalikda qo'llash muhimdir.

Tahlil natijalariga ko'ra, onkologik kasalliklarni erta aniqlashda laborator diagnostika usullari tibbiyotda muhim o'rin egallaydi. Kompleks yondashuv, ya'ni bir necha laboratoriya usullarini (onkomarkerlar, genetik testlar, immunologik tahlillar) birlashtirish orqali diagnostika samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa suyuq biopsiya, onkologiyada diagnostika va monitoring qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ularning yordamida saratonning dastlabki bosqichlarida, hatto klinik belgilar paydo bo'lmasdan oldin aniqlash mumkin. Shu bilan birga, bu usullar hali ham mukammal emas. Ular yuqori spetsifiklik va sezgirlikka erishish uchun doimiy ravishda takomillashtirilishini talab qiladi. Kelgusida tadqiqotlar aynan shu yo'nalishda olib borilishi, yangi onkomarkerlar va genetik mutatsiyalarni aniqlashga qaratilishi zarur. Shuningdek, bu usullarni klinik amaliyotga keng joriy etish uchun skrining dasturlarini ishlab chiqish va laboratoriya mutaxassislarining malakasini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu borada davlat va xususiy tibbiyot muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, aholi orasida saraton skriningining ahamiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish muhimdir.